
STATISTIKA

Statistika

Tumanni ishsizlik va korrupsiyadan holi hududga aylantirishda **“mahallabay”** va **“xonadonbay”** ishlash tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari belgilandi.

Jumladan:

4 ta yo'nalish bo'yicha **maqsadli ko'rsatgichlar**, **4 ta** sektorning **bandlik dasturi** va yer maydonlari ajratiladigan **420 nafar yoshlarning ro'yxati** tasdiqlandi;

2024 yilda tumanda yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha **7 ta ustuvor yo'nalishda**, jumladan **“og'ir” toifadagi** va **“Yoshlar daftari”**ga kiritilgan yoshlarga ko'maklashish, **bandligini ta'minlash**, **xorijdagi yoshlar** bilan ishlash, yoshlar o'rtasida **jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni** oldini olish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning **bo'sh vaqtini** mazmunli tashkil etish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Xususan;

Davlat ko'magiga muhtoj “og'ir” toifadagi yoshlar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha:

Tumandagi **tarbiyasi og'ir va alohida ishlashga muhtoj** jami **611 nafar** yoshlar bilan individual ishlash maqsadida tuman darajasidagi **27 nafar** rahbarlarga **nomma-nom** biriktirib chiqildi.

Biriktirilgan mas'ul rahbarlar tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar davomida muammosi aniqlangan **143 nafarida** ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aniqlanib, **100 nafariga (69,9 foiz)** turli xil yo'nalishlarda amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Ma'lumot uchun. Ularning **15 nafari** ishga joylandi, **31 nafariga** yer maydonlari ajratildi, **2 nafariga** mehnat quroli berildi, **1 nafari** tibbiy davolatildi, **51 nafari** belgilangan toifalardan chiqarilishiga ko'maklashildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-07-17 16:42:27